

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIV TA'LIM TIZIMI
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

MANNOPOVA ROBIYA BAHTIYOR QIZI

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINING
INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Mannopova Robiya Bahtiyor qizi

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish 3

Маннопова Робия Бахтиёр кизи

Совершенствование механизмов развития инновационной компетентности педагогических кадров высших образовательных учреждений 23

Mannopova Robiya Bakhtiyor qizi

Improvement of mechanisms for developing the innovative competence of teaching staff in higher education institutions 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIV TA'LIM TIZIMI
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

MANNOPOVA ROBIYA BAHTIYOR QIZI

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINING
INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8064 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailova Zuxra Karabayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xoliyorov Bunyod Xusanovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "18" iyun kuni soat 14-30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy). Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (33 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, info@bimm.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "04" iyun da tarqatildi.
(2026-yil "04" iyun dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi bevosita uning innovatsion salohiyati bilan belgilanmoqda. YUNESKOning “Education 2030: Incheon declaration and framework for action”¹ hujjatida qayd etilishicha, ta’lim tizimini rivojlantirish jarayoni doimiy takomillashtirishni, yangiliklarni amaliyotga joriy etishni va ularning samaradorligini muntazam baholab borishni talab etadi. Hujjatda 2030-yilgacha malakali o’qituvchilar sonini sezilarli darajada oshirish, ularning kasbiy rivojlanishini xalqaro hamkorlik orqali qo’llab-quvvatlash hamda innovatsion va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ta’lim sifatini belgilovchi muhim yo’nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, o’qituvchilar Barqaror rivojlanishning maqsadlari SDG4² - sifatli ta’limni ta’minlashning asosiy ishtirokchisi sifatida e’tirof etilib, ularning kasbiy tayyorgarligi, motivatsiyasi, adolatli rag’batlantirilishi hamda ta’lim tizimida yetarli moddiy-texnik sharoitlarning yaratilishi zarurligi alohida ta’kidlanadi.

Jahon ta’lim tizimida o’qituvchilarning innovatsion salohiyati ta’lim sifatining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi ilg’or davlatlarda o’qituvchilarni tayyorlashda innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish malakalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda innovatsion kompetentlik nafaqat texnologiyadan foydalanish qobiliyatini, balki yangi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchini motivatsiyalash hamda ta’lim sifatini boshqarish ko’nikmalarini ham o’z ichiga oladi. Shu bois xorijiy tajriba o’qituvchilarning innovatsion kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirish zaruratini tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli savodxonlikni oshirish va pedagog kadrlarning metodik salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralib, amaliy natijalarga erishilmoqda. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining ta’lim tizimidagi islohotlarning maqsadlarida barcha yo’nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash vazifasi belgilangan. Shu bois pedagog kadrlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash hamda ta’lim jarayonini innovatsion tamoyillar asosida tashkil etish masalalari alohida e’tiborga molikdir. Buning uchun pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini tizimli rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy zaruratga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni, 2021-yil

¹ UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4: Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all. Paris: UNESCO, 2016. 85 p;

² UNESCO. Unpacking Sustainable Development Goal 4: Education 2030. - Geneva, 2017.

<https://www.unesco.ch/wp-content/uploads/2017/01/Unpacking-sdg4.pdf>

19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada mustahkamlaydi. Ushbu hujjatlarda o‘qituvchilarning innovatsion va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda sun‘iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu jihatdan, oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pedagogika fanida innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning rivojlantirish mexanizmlariga doir ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilgan. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari mazkur muammoning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar U.Sh. Begimkulov, M.B.Matnazarova, Sh.Sh.Mirziyoyeva, M.T.Jumaniyozova, F.X. Ibragimova, S.T.Turg‘unov, J.U. Kusharbaev, K. J. Riskulova kabi olimlarning ishlarida keng yoritilgan. Ularning izlanishlarida malaka oshirish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, ta‘lim samaradorligini oshirish, raqamli vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va o‘qituvchining metodik salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.S.Florova, Yu.A. Komarova, M.S.Taramova, L.S.Neradovskaya, G.I.Boichan, N.Yu.Zvyaginseva, L.V.Shkerina, N.E.Kopitova, L.O.Kocheshkova, G.A.Rakitina, T.G.Shirina, E.M.Artamova, O.Nessipbayeva, V.V.Pozdnyakovlarning tadqiqotlarida pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari - motivatsion, kreativ, refleksiv, raqamli va kommunikativ komponentlar, shuningdek, innovatsion yondashuvlarning uzluksiz ta‘lim tizimidagi o‘rni keng yoritilgan. Shuningdek, A.R.Ovbiagbonhianing ishlari kompetensiyaga asoslangan ta‘lim va baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Everett Rogers tomonidan ishlab chiqilgan “Innovatsiyalar tarqalishi nazariyasi” innovatsion jarayonlarni tushuntirishda asosiy nazariy baza sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, A.J.Rou, D.Simonton, T.Byuzen kabi olimlari tomonidan innovatsion salohiyat, pedagogning innovatsion faoliyatni tashkil etishga doir izlanishlar olib borilgan. Juan

A. Marin-Garcia tomonidan taklif qilingan FINCODA modeli innovatsion kompetentligini baholashning xalqaro darajada qo'llaniladigan mexanizmlaridan biri bo'lib, unda kreativlik, tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlik va jamoaviy ishlash asosiy indikatorlar sifatida ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, OECD va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarda raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini oshirish va ularni global ta'lim muhitiga integratsiya qilish bo'yicha muhim tavsiyalar berilgan.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda innovatsion kompetentlikning nazariy asoslari va umumiy rivojlantirish yo'nalishlari keng yoritilgan bo'lsa-da, aynan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatiga moslashtirilgan, amaliyotga tatbiq etiladigan aniq mexanizmlar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Xususan, malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini tizimli shakllantirish va ularni samarali baholash mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi ochiq qolmoqda. Shu bois, mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilib, pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari bilan bir qatorda, amaliy mexanizmlarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq IL-4821091576 "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" (2022-2024 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar hamda ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish tuzilmasini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini innovatsion kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish;

pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqot obyekti oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti va Namangan davlat chet tillari institutlarida olib borilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarning yechimini topish uchun umumilmiy (tarixiy, biografik, kontent-tahlil), pedagogik kuzatish, sotsiometrik (test, online so'rov, suhbat), modellashtirish

(loyihalash), va matematik statistik hisob kitoblarni amalga oshiruvchi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanish darajasini kompetensiyalar klasteri va shakllanganlik deskriptori asosidagi innovatsion kompetentlik matritsasining mezonli-baholash ko'rsatkichlarini natija interpretatsiyasiga ko'ra baholash asoslangan;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli transversal kompetensiyalarni uzviy shakllantirishni ta'minlovchi innovatsion kompetentlik darajasini baholashning gradatsiyali indikatorlarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni kompetensiyalar klasterining tarkibiy komponentlarini shakllanganlik darajasini ta'minlovchi tashkiliy-pedagogik mexanizmlariga kompetentlik matritsasining mezonli-baholash ko'rsatkichlarini aniqlashtirish vositalarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi samaradorligi innovatsiyaga nisbatan ichki munosabat va kasbiy pozitsiyaning quyi - innovatsiyaga passiv munosabat va tashqi talab sifatida qabul qilish, o'rta - innovatsiyani anglangan holda qo'llashga tayyorlik, yuqori - innovatsiyani kasbiy qadriyat sifatida qabul qilish va liderlik faoliyati darajalariga mosligini muvofiqlashtiruvchi baholash shkalasiga kriterial-diaagnostik mezonlarni kiritish orqali aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini diaagnostik vositasi sifatida "Innovatsion kompetentlik matritsasi" ishlab chiqilgan;

malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish moduli kiritilgan;

"Ta'limda sun'iy intellekt: nazariyadan amaliyotga" o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va ta'lim amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan model va diaagnostika mezonlarining ilmiy-metodik asoslanganligi, ularning ish maqsadi va vazifalariga mosligi, rasmiy manbalardan olingan nazariy ma'lumotlardan foydalanganlik, o'tkazilgan tahlil, matematik-statistik usullar yordamida aniqlangan eksperimental tekshirish ishlarining samaradorligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish mazmuni, tarkibi, shakl, metod va vositalarining aniqlashtirilganligi, kompetentlik matritsasining ishlab chiqilgani bilan izohlanadi. Takomillashtirilgan model pedagog kadrlarning raqamli va ijodiy-

pedagogik salohiyatini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yondashuv sifatida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati takomillashtirilgan model, innovatsion kompetentlik matritsasi va ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlantirish kurslari mazmunini takomillashtirishga, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va innovatsion kompetentlik darajasini o'zgarishi dinamikasini monitoring qilishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanish darajasini kompetensiyalar klasteri va shakllanganlik deskriptori asosidagi innovatsion kompetentlik matritsasining mezonli-baholash ko'rsatkichlarini natija interpretatsiyasiga ko'ra baholash asoslanishi bo'yicha tavsiyalardan malaka oshirish yo'nalishlari ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-fevraldagi 02/01-01-82-son ma'lumotnomasi). Natijada malaka oshirish dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi oshirilgan;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini innovatsion kompetentligini rivojlantirish modelini transversal kompetensiyalarni uzviy shakllantirishni ta'minlovchi innovatsion kompetentlik darajasini baholashning gradatsiyali indikatorlarini kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan 2022-2024 yillarda bajarilgan №IL-4821091578 "Intellectualnaya mobilnost: institutsionalnoe modelirovanie internatsionalizatsii visshego obrazovaniya" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan. Natijada oliy ta'limni xalqarolashtirishda pedagog kadrlar innovatsion kompetentligini takomillashtirish yo'nalishlari aniqlashtirilgan;

pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonini kompetensiyalar klasterining tarkibiy komponentlarini shakllanganlik darajasini ta'minlovchi tashkiliy-pedagogik mexanizmlariga kompetentlik matritsasining mezonli-baholash ko'rsatkichlarini aniqlashtirish vositalarini kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining №5683-4969-8057-8781-3788-3714-8655 sonli nashr ma'lumotnomasi bilan ro'yxatga olingan "Til ko'nikmalarini o'qitishda yangi pedagogik yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-fevraldagi 02/01-01-82-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanish jarayonini rejalashtirish va diagnostikasini takomillashtirishga erishilgan;

innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi samaradorligini innovatsiyaga nisbatan ichki munosabat va kasbiy pozitsiyaning quyi - innovatsiyaga passiv munosabat va tashqi talab sifatida qabul qilish,

o'rtta - innovatsiyani anglangan holda qo'llashga tayyorlik, yuqori - innovatsiyani kasbiy qadriyat sifatida qabul qilish va liderlik faoliyati darajalariga mosligini muvofiqlashtiruvchi baholash shkalasiga kriterial-dagnostik mezonlarni kiritish orqali aniqlashtirish bo'yicha takliflar malaka oshirish kurslari ta'lim dasturlari mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan), "Ta'limda sun'iy intellekt: nazariyadan amaliyotga" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma malaka oshirish kurslari amaliyotiga joriy etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-fevralda 02/01-01-82-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagog kadrlarning ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kasbiy ko'nikmalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligi mazmuni va uni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida innovatsion kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati ilmiy manbalar asosida izohlanib, pedagogik tadqiqotlarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Bobda pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligi tarkibiy qismlari, ularning mazmuni, xususiyatlari, hamda o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati xalqaro tajriba va O'zbekistonning ta'lim sohasidagi milliy strategik hujjatlari tahlili orqali asoslandi.

E.M. Artamova, G.I. Boinchanu, E.F. Zeer, B.E. Starichenko, I.D. Chechel, N.Yu. Zvyagintseva, M.A. Arifin, D. Bruton, D.F. Radkliff, P. Serdyukov kabi olimlar tadqiqotlari, shuningdek OECD va UNESCO tashkilotlarining konseptual hujjatlari hamda “Pedagogika izohli lug‘ati”da keltirilgan “innovatsiya” va “innovatsion kompetentlik” tushunchalarining mazmuni tahlil qilinib, ular asosidagi umumiy nazariy yondashuvlar integratsiya qilindi. Ushbu manbalar tahlilidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligi haqida quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etildi: Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligi - bu o‘qituvchining metodologik, tadqiqotchilik, raqamli va ijodiy qobiliyatlarini, shaxsiy motivatsiya va kasbiy qadriyatlarini o‘z ichiga olgan integral sifat bo‘lib, u pedagogning o‘z faoliyatida yangiliklarni yaratish, joriy etish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar majmuidir.

Bobda M.S.Taramova, L.X.Jabrailova, X.N.Magomedova, G.I.Boichanu, L.S.Neradovskaya, N.Yu.Zvyaginseva, L.V.Shkerina, N.E.Kopitova, L.O.Kocheshkova, V.V. Pozdnyakov, A.R.Ovbiagbonhia, B.Kollofel va P.den Brok, shuningdek X.A. Marin-Garsiya, M.X.Peres-Penalver va F.Uotts kabi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan innovatsion kompetentlikning tarkibiy qismlari tahlil qilindi. Mazkur yodashuvlarni solishtirish va umumlashtirish asosida komponentlarning umumiy tuzilmasi aniqlashtirildi. Tahlil natijasiga ko‘ra, innovatsion kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan iborat ekani belgilandi: motivatsion-qadriyatli komponent innovatsion faoliyatga ichki rag‘bat va kasbiy qadriyatlarni ifodalaydi; ijodiy(kreativ) komponent yangicha fikrlash, g‘oya yaratish va muammolarni noodatiy yechish qobiliyatini aks ettiradi; texnologik-operatsion komponent innovatsion metod va texnologiyalarni amaliy qo‘llay olishni ta’minlaydi; kognitiv komponent o‘qituvchining kasbiy bilimlar bazasini, metodik yondashuvlar haqidagi tasavvurlarini, fanlararo integratsiyani amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi; kommunikativ komponent, hamkorlik, fikr almashish va professional muloqotni tashkil eta olish ko‘nikmasini ifodalaydi; reflektiv komponent pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan reflektiv qobiliyatlarni ifodalaydi.

O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son va 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son Farmonlari, shuningdek hukumat qarorlari ta’lim, fan va innovatsiyani yagona tizim sifatida shakllantirish hamda yoshlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu islohotlar natijasi o‘laroq mamlakatning Global Innovatsiya Indeksidagi o‘rni izchil yaxshilanib borayotgani “O‘zbekiston-2030”strategiyasida belgilangan Top-50 davlatlar qatoriga kirish maqsadi bilan hamohangdir. Mazkur jarayon nafaqar iqtisodiy, balki ta’lim tizimi

uchun ham yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish bu yo'nalishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki innovatsion o'qituvchi talabalarga bilimni global ilmiy va texnologik makonga kirish vositasi sifatida o'rgatadi, ularni xalqaro muloqot, qo'shma loyihalar va ijodiy faoliyatga jalb etadi hamda zamonaviy metodlar orqali muammolarni yangicha hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, an'anaviy yondashuvlarning ustuvorligi, raqamli kompetensiyalarning sustligi va kadrlar tayyorlashdagi bo'shliqlar mazkur kompetentlikni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish ta'lim jarayonining sifatini ko'tarish bilan birga, mamlakatning umumiy innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini mustahkamlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida innovatsion kompetentlikni diagnostika qilishga doir xalqaro yondashuvlar, xususan, Fincoda va Incode barometer kabi modellarning tarkibiy tuzilmasi, diagnostik-baholash mezonlari va indikatorlari qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur tahlil natijalari, global ta'lim makonida shakllangan ustuvor yo'nalishlar hamda ilmiy tadqiqotlardagi innovatsion kompetentlik tarkibiy tuzilmasiga doir nazariy yondashuvlarni inobatga olgan holda innovatsion kompetentlik matritsasi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang). Innovatsion kompetentlik matritsasi oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan pedagogik-metodik, raqamli, sun'iy intellekt, kreativ, va tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik-loyiha, kommunikativ hamda refleksiv kompetensiyalarni tizimli baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Matritsada kompetensiyalar boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalar kesimida yoritilgan bo'lib, har bir daraja uchun shakllanganlik deskriptori, mezonli-baholash ko'rsatkichlari, ballar taqsimoti, aniqlash vositalari va natija interpretatsiyasi aniq belgilangan. Innovatsion kompetentlik matritsasi oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini innovatsion faol pedagog darajasiga bosqichma-bosqich olib chiqish imkonini beradi. “Innovatsion kompetentlik matritsasi”ni malaka oshirish jarayoniga integratsiya qilish o'qituvchilarning individual rivojlanish strategiyasini shakllantirishga xizmat qilsa, KPI tizimiga kiritish orqali o'qituvchilarning yillik faoliyatini innovatsion kompetentlik bilan bog'lab baholash imkonini beradi.

Shuningdek, bobda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi model takomillashtirilib, uning tarkibiy bloklari, funksional mexanizmlari hamda amaliy qo'llash shart-sharoitlari yoritildi (1-rasmga qarang). Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli maqsadli blok, mexanizmlar bloki, jarayonli va natijaviy bloklardan iborat. Pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni shaxsiy-qadriyatli faollashuv, kognitiv-loyihaviy, kasbiy-faoliyat va refleksiv-korreksion darajalar orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi aks ettirilgan.

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentlik matritsasi

№	Kompetensiyalar klasteri	Tarkibiy komponentlar (qisqa)	Deskriptor, mezonli-baholash ko'rsatkichlari va natija interpretatsiyasi			Aniqlash vositalari
			Boshlang'ich 6–20 ball	O'rta 21–40 ball	Yuqori 41–60 ball	
1.	Pedagogik-metodik faoliyat	O'quv jarayonini rejalashtirish; an'anaviy va interaktiv metodlar; ta'lim dizayni; baholash; innovatsion yondashuvlar.	An'anaviy darsni rejalashtiradi; maqsad-natija muvofiqligini ta'minlaydi; test/savol-javobdan foydalanadi; kamida 1 interaktiv metodni qo'llaydi.	2–3 interaktiv metodni qo'llaydi; differensial topshiriqlar ishlab chiqadi; formativ/summativ baholash va keys/guruhli ishni qo'llaydi.	Mualliflik metodikasi yoki gibridd ssenariy yaratadi; loyiha/ishlanma tayyorlaydi; samaradorlikni tahlil qiladi; tajribani ommalashtiradi.	Kuzatuv, dars tahlili, portfolio, loyiha himoyasi, ekspert xulosasi
2.	Raqamli (AKT) kompetensiya	AKT savodxonligi; raqamli kontent; LMS/HEMIS; onlayn muloqot; ma'lumotlar tahlili; raqamli innovatsiyalar.	HEMIS va elektron materiallardan foydalanadi; internet manbalarini izlaydi; kibernetika xavfsizlikning bazaviy qoidalarini biladi.	HEMISda kurs/modul taqdim etadi; interaktiv test va topshiriqlar yaratadi; raqamli resurslardan tizimli foydalanadi; talabalar faolligini tahlil qiladi.	Raqamli ta'lim muhitini loyihalaydi; HEMIS ma'lumotlari asosida qaror qabul qiladi; LMS, bulutli servis va dashboard/online kurs yaratadi.	Kompyuter testi, amaliy topshiriq, elektron portfolio, loyiha ishi, analitik hisobot
3.	Sun'iy intellekt kompetensiyalari	SI asoslari; tayyor SI vositalari; prompt tuzish; SI orqali kontent yaratish; avtomatlashtirilgan baholash; ta'lim analitikasi.	SI imkoniyati va cheklovini izohlaydi; ChatGPT/Gemini/Co pilotdan foydalanadi; sodda prompt tuzadi; natijani tekshirish zarurligini anglaydi.	15–20 ta samarali prompt tuzadi; dars rejasi, test, keys va rubrika yaratadi; SI kontentini tahrirlaydi; feedback/kontent moslashtirishda qo'llaydi.	Adaptiv/intellektual ta'lim yechimini yaratadi; SI natijalarini analitika bilan baholaydi; etik-metodik qoidalar ishlab chiqadi; SI modulini joriy etadi.	Test, amaliy keys, elektron materiallar tahlili, portfolio, loyiha/startap himoyasi
4.	Kreativ va tanqidiy fikrlash	Muammoni tahlil qilish; mantiqiy fikrlash; muqobil yechim; tanqidiy pozitsiya; innovatsion g'oya generatsiyasi.	Standart vaziyatlarda tayyor yechimlardan foydalanadi; asosiy sababni aniqlaydi; namunaviy javob beradi; yangi g'oya taklifida qiynaladi.	Kamida 2 ta muqobil yechim taklif qiladi; dalillar asosida taqqoslaydi; debat/esse/keysda tanqidiy pozitsiya bildiradi; yondashuvni moslashtiradi.	Original model yoki innovatsion yechim yaratadi; kreativ loyiha/startap g'oyasini ishlab chiqadi; SWOT/risk tahlil qiladi; natijaga ko'ra takomillashtiradi.	Mantiqiy test, keys-tahlil, debat, esse, reflektiv yozuv, kreativ portfolio
5.	Tadqiqotchilik va loyiha faoliyati	Ilmiy manbalar; ma'lumot to'plash va tahlil; tadqiqot metodlari; maqola/hisobot; grant, startap va ilmiy rahbarlik.	5–10 ta manba asosida xulosa tayyorlaydi; oddiy tahlil/hisobot qiladi; mini-loyiha bajaradi; muammo, maqsad va xulosani ajratadi.	2–3 ta tadqiqot savoli/gipoteza shakllantiradi; so'rov, intervyu, kuzatuv yoki testdan foydalanadi; natijani jadval/grafik/hisobot da beradi.	To'liq tadqiqot yoki innovatsion loyihani boshqaradi; grant/startap/patent taklifi tayyorlaydi; natijani amaliyotga joriy etadi va ommalashtiradi.	Test, amaliy topshiriq, hisobot/maqola tahlili, taqdimot, grant arizasi, ekspert bahosi
6.	Kommunikativ kompetensiya	Og'zaki va yozma muloqot; jamoada ishlash; feedback; kasbiy etika; liderlik; xalqaro va professional kommunikatsiya.	Axborotni tushunarli yetkazadi; jamoada oddiy vazifa bajaradi; savol-javobda ishtirok etadi; kasbiy etika qoidalariga rioya qiladi.	Guruhli ish, muhokama va prezentatsiyada faol; konstruktiv feedback almashadi; akademik muhokamada dalilli pozitsiya bildiradi; material/loyiha ishlab chiqadi.	Jamoa yoki loyiha guruhida liderlik qiladi; respublika/xalqaro tadbirlarda qatnashadi; professional tarmoqlarda tajriba almashadi; seminar/master-klass o'tkazadi.	Kuzatuv, savol-javob, anketa, prezentatsiya bahosi, peer-review, sertifikat, portfolio
7.	Refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish	O'z faoliyatini tahlil qilish; o'zini baholash; kasbiy rivojlanish rejasi; moslashuvchanlik; mentorlik va koaching.	Kuchli/zaif jihatlarni ko'rsatadi; reflektiv kundalik yoki anketa yuritadi; tashqi tavsiyaga tayanadi; o'rganish ehtiyojini belgilaydi.	Feedback asosida rivojlanish ehtiyojini aniqlaydi; SWOT/IPR tuzadi; kurs/webinarlarda qatnashadi; metodik yondashuvga o'zgartirish kiritadi.	1–3 yillik rivojlanish strategiyasini amalga oshiradi; portfolio orqali dinamikani ko'rsatadi; yangi ko'nikmalarni mustaqil egallaydi; mentorlik/koaching qiladi.	Reflektiv kundalik, anketa/suhbat, SWOT-tahlil, o'zini baholash varaqasi, portfolio, mentor xulosasi

O‘z-o‘zini motivatsion-qadriyatli rivojlantirish va moslashuvchanlik metadaraja mexanizmlarni rasmiy malaka oshirish, mustaqil kasbiy rivojlanish, ilmiy-metodik va tajriba almashish, akademik mobillik va tashqi professional rivojlanish kabi yo‘nalishlar orqali takomillashtirish aks ettirilgan. Innovatsion metod va vositalar yordamida pedagog kadrlarning innovatsion-pedagogik, raqamli-didaktik, ilmiy-tadqiqot, kommunikativ-kolloborativ, refleksiv-adaptiv va barqaror-aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirish innovatsion kompetentligi yetarli darajada shakllangan pedagog tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu bobda pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan kasbiy rivojlanish trayektoriyasi yoritilgan. Kasbiy rivojlanish trayektoriyasi uzluksiz diagnostika, masadli rivojlanish va monitoring bosqichlarini o‘zaro bog‘lovchi izchil jarayonni o‘z ichiga oladi va u tizimlilik, uzluksizlik va samaradorlik tamoyllari asosida tashkil etiladi. Kasbiy rivojlanish trayektoriyasi PDSA sikli (rejalashtirish, bajarish, tahlil qilish, takomillashtirish) orqali doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish uchun mazkur jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi bir qator shart-sharoitlarni yaratish zarur deb hisoblaymiz. Avvalo, o‘qituvchilarning kompetentlik darajasini muntazam ravishda aniqlab borishga imkon beruvchi diagnostika amaliyotini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Bu jarayon Innovatsion kompetentlik matritsasi asosida shakllantirilgan monitoring tizimi bilan uyg‘unlashtirilganda, har bir o‘qituvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shuningdek, innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish o‘qituvchilarga raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanishda metodik yordam ko‘rsatib borish bilan birga olib borilishi lozim. O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish uchun rag‘batlantirish tizimi, jumladan, KPI mezonlarini joriy etish o‘qituvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydigan muhit yaratish, o‘qituvchilar uchun muntazam treninglar, seminarlar va mentorlik tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida PDSA(plan-do-study-act) yondashuvining tadbiq etilishi esa o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini izchil, tahliliy va doimiy takomillashib boruvchi mexanizmga aylantiradi. Ushbu shart-sharoitlarning uyg‘un holda joriy etilishi pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini tizimli ravishda oshirish uchun zarur bo‘lgan poydevorni yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni, bosqichlari, baholash mexanizmlari va natijalari yoritilgan.

Oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari 2023-yil yanvar oyidan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda uch bosqichda amalga oshirildi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli

1-bosqich: tahliliy-diaagnostik bosqich (2023-yil);
2-bosqich: pedagogik tajriba bosqichi (2024–2025-yy.);
3-bosqich: tajriba-sinov ishining samaradorligini kompleks baholash bosqichi (2025-yil).

Dastlabki bosqichda tadqiqot faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida batafsil tajriba-sinov rejasi ishlab chiqildi. Unda tajribaning maqsadi, vazifalari, bosqichlari va kutilayotgan natijalari aniq belgilandi. Tajriba-sinov ishlarini samarali o'tkazish uchun zarur tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratilib, tajriba maydonchasi sifatida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti va Namangan davlat chet tillari instituti tanlab olindi.

Ishtirokchilar kontingenti sifatida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy til o'qituvchilari belgilandi. Shu bosqichda xorijiy til o'qituvchilarining malaka oshirish tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, tadqiqot bilan bog'liqligi aniqlashtirildi.


Tajriba-sinov ishining samaradorligini baholash maqsadida Yangi avlod Kirkpatrik modeli asosida, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malaka oshirish tizimiga modifikatsiyalangan versiyasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Kirkpatrik modelining modifikatsiyalangan versiyasi bo'yicha:

1-daraja (tinglovchi tavsifi) - kuzatuv, so'rovnoma metodlari orqali tinglovchilarning malaka oshirish kurslaridan kutilmalari o'rganildi, dastlabki diagnostika o'tkazildi va "Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish" moduliga bo'lgan munosabati, qoniqish darajasi va fikr-mulohazalari so'rovnoma va yarimstrukturaviy intervyu yordamida tahlil qilindi.

2-daraja (kognitiv) – "Pre-test" va "Post-test"lar orqali tinglovchilarning modul davomida olgan bilimlari baholandi;

3-daraja (amaliyotda qo'llash) – tinglovchilarning bitiruv loyihaviy ishlari tahlil qilinib, ularning o'z faoliyatida innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalari o'rganildi va baholandi;



2-rasm. Yangi avlod Kirkpatrik modelining malaka oshirish tizimiga modifikatsiya qilingan versiyasi

4-daraja (natija) – modulning ta'lim sifati samaradorligiga ta'siri baholandi. "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" modulining yillar kesimidagi

natijalari tahlil qilinib, sun'iy intellekt modulida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning tinglovchilarning umumiy kasbiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi aniqlashtirildi.

2-bosqich: pedagogik tajriba bosqichi (2024–2025-yy.)

Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tajriba dasturining maqsad va vazifalariga muvofiq zarur tashkiliy-metodik asoslar ishlab chiqildi va eksperimental tadqiqotga moslashtirilgan yangi o'quv moduli ishlab chiqildi.

Malaka oshirish tizimida faoliyat yurituvchi o'qituvchi-trenerlar uchun 2 soatlik tayyorgarlik mashg'uloti tashkil etilib, ularning metodik salohiyati mustahkamlandi va tajriba dasturining mazmuni bilan tanishtirildi.

Tajriba-sinov dasturi amaliyotga joriy qilindi. U "Xorijiy til o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish" mavzusiga bag'ishlangan 6 soatlik o'quv moduli asosida tashkil etildi. Tajriba 2025-yil yanvar oyidan iyun oyigacha davom etib, 365 nafar xorijiy til o'qituvchisi ishtirok etdi.

Mazkur modul xorijiy til o'qituvchilarining raqamli kompetensiyasini, xususan, sun'iy intellekt vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

3-bosqich: Tajriba-sinov ishining samaradorligini kompleks baholash jarayonida modifikatsiyalangan Kirkpatrik modelining barcha to'rt darajasida olingan ma'lumotlar statistik-matematik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlarida biz tomondan ishlab chiqilgan 13 ta banddan iborat savolnoma 10 ballik baholash tizimida tadqim etildi va respondentlarning o'rtacha ko'rsatkichlari matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Namangan va Samarqand davlat chet tillari institutlarining jami 887 nafar xorijiy til o'qituvchilari ishtirok etdi. Tillar tarkibida ingliz tili (68,9%) ustunlik qildi, pedagogik tajriba bo'yicha taqsimot muvozanatli bo'ldi.

Umumiy o'rtacha ball $\approx 8,0$ ball, $SD \approx 1,7$, bu o'qituvchilarning o'z kompetensiyalarini ijobiy baholashini ko'rsatadi. Eng yuqori natijalar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi va o'z-o'zini rivojlantirish bandida (mediana = 9, moda = 10) qayd etildi, nisbatan past natijalar esa "Sun'iy intellekt integratsiyasi", "Ilmiy-tadqiqot faoliyati" va "Barqaror rivojlanish" kompetensiyalarida kuzatildi.

